

---

## ILG'ORLAR RAG'BATLANTIRILDI



Kunlar isigani sayin bug'doy boshoqlari ham yetilishi tezlashmoqda. Bu bug'doyni tezroq o'rib olishni taqazo etadi. Mana shunday issiq kunlarda g'allazorlarda mehnat qilayotgan o'rim otryadi a'zolari sog' bo'lishsin.

Qatortol MMTP hududidagi "Yahyojon Bolajon" fermer xo'jaligida bug'doy o'rayotgan 5-otryad a'zolari bir kunda 70 tonnagacha hosil o'rib yig'ib olishmoqda.

Markaziy Farg'ona MMTP hududidagi "Xolmat polvon" fermer xo'jaligidagi 1-otryad a'zolari esa bir kunda 95-100 tonnagacha g'alla hosilini yig'ib olishmoqda.

Tuman hokimi Dilshodjon Djalilov boshchiligida sektor rahbarlari ilg'or otryad a'zolari huzurida bo'lib, suhbatlashdilar.

--Hosil mo'l. Shijoatni so'ndirmaslikka kerak, faqat oldinga intilish kerak, - dedi hokim.

G'allani tez va sifatli o'rib faollik ko'rsatayotgan otryad rahbarlari hamda kombayinchilariga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-14 16:38:01